

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 maydagi PF–88-son Farmoni va PQ–185-son qarori asosida ishlab chiqilib Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi Olimlar Kengashining 202 -yil “___” _____dagi № sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2027 yil gacha

Ta'lim muassasi nomi	Tibbiyot xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra/ bolim	Klinik laborator diagnostika		
O'quv dastur nomi	Yangi uskunalarda ishlash, zamonaviy laboratoriya texnologiyalari, sifat nazorati tizimlari		
O'qish turi			
O'quv dastur muallifi /mualliflari	Aripov O.A., Aripov A.N., Axmatxodjaeva D.A., Usmanova Z.A.		
Siklning umumiy soati	72 kredit		
Siklda dars beradidan o'qituvchi va trenerlar			
 Kafedra mudiri, professor,t.f.d. Aripov			 Katta o'qituvchi
 stajyor o'qituvchi Jalilov Abduazim Abduhakim o'g'li		 ' D S	 Katta o'qituvchi t.f.n.,

				
Katta o'qituvchi Axmatxodjaeva Dilnoza Anorovna				
Maqsad	Markazlashgan laboratoriyalar tizimida preanalitik, analitik va postanalitik bosqichlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda laboratoriya jarayonlarining barcha bosqichida sifatni ta'minlashni samarali tashkil etish mazkur dasturning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Dastur markazlashgan laboratoriyalar faoliyatida yagona yondashuv va standartlashtirilgan sifat nazorati mexanizmlarini joriy etish orqali tahlil natijalarining to'g'riligi, ishonchliligi va takrorlanuvchanligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, tinglovchilarda analitik bosqichda sifatni nazorat qilish, ichki, tashqi va laboratoriyalararo sifat nazorati tizimlarining mohiyati, ularning markazlashgan laboratoriya amaliyotidagi ahamiyati va qo'llash mexanizmlari bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish nazarda tutiladi. Dastur doirasida tahlil natijalari aniqligi, ishonchliligi va xatolik ko'rsatkichlarini baholash, nazorat kartalarini tuzish va ularni talqin qilish bo'yicha zamonaviy usullar o'rgatiladi. Turli zamonaviy laborator analizatorlarda sifat nazoratini markazlashgan tizim talablari asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash, shuningdek, laboratoriya diagnostikasiga oid boshqa zamonaviy usullar va jarayonlar majmuasini samarali amalga oshirish imkonini beruvchi kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish va yangilash ushbu dasturning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.			
siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Mavzuli malaka oshirish o'quv dasturi "Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida o'quv dasturlarining tarkibiga va ularni tasdiqlash tartibiga talablar haqida" O'z R SSV 12.06.2012 № 202 buyrug'iga binoan internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki birlamchi			

	ixtisoslashtirish olganligi haqida tasdiqlovchi hujjatlari bo'lgan va shu sohada 3 yillik ish tajribasiga ega, davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlarining mutaxassislari uchun mo'ljallangan.
sikl vazifalari	• Analitik jarayonlarni boshqarish: Preanalitik, analitik va postanalitik bosqichlarda yuzaga keladigan xatoliklarni aniqlash va bartaraf etish usullarini o'rgatish. • Sifat nazoratini tatbiq etish: Ichki, tashqi va laboratoriyalararo sifat nazorati mexanizmlarini amaliyotga joriy qilish. • Nazorat va monitoring: Tahlil natijalari aniqligi, ishonchliligi va takrorlanuvchanligini baholash, nazorat kartalari tuzish va ularni talqin qilish. • Laboratoriya texnologiyalarini qo'llash: Biokimyoviy, gematologik, immunoferment, koagulometr va boshqa analizatorlarda sifat nazoratini tashkil etish va amaliy ishlatish. • Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish: Laboratoriya diagnostikasida zamonaviy usullar va texnologiyalarni qo'llash, mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini yangilash va takomillashtirish. • Markazlashgan tizimni mustahkamlash: Standartlashtirilgan yondashuv va markazlashgan laboratoriya tizimining samaradorligini oshirish.
sikl tarkibi	• Laboratoriya faoliyatida sifat nazorati tizimlari va xalqaro standartlar • Zamonaviy laboratoriya texnologiyalari va yangi uskunalarda ishlash
O'qish bazalari	 

Simulyatsion asbob/uskunalar

